



## **O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FARG‘ONA VILOYATI HOKIMINING QARORI**

---

### **Farg‘ona viloyati hokimligining 2024-yil II yarim yillik ish rejasini tasdiqlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston - 2030” strategiyasini 2023-yilda sifatli va o‘z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 11-sentabrdagi PQ–300-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston - 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to‘g‘risida” 2024-yil 21-fevraldagi PF–37-son Farmonida belgilangan vazifalar, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari, farmoyishlari, Hukumat qarorlari va farmoyishlari, xalq deputatlari viloyat Kengashi qarorlari ijrosi yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Rayosati Majlisining “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil II yarim yillik ish rejasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2024-yil 22-iyuldagi 77/51-son (XDFU) bayoni talabi hamda hokimlik zimmasiga yuklatilgan vazifalarning to‘laqonli bajarilishini ta‘minlash, ijro intizomini yanada mustahkamlash maqsadida,

### **Q A R O R   Q I L A M A N :**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Rayosati Majlisining “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil II yarim yillik ish rejasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2024-yil 22-iyuldagi 77/51-son (XDFU) bayoni rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Fag‘ona viloyati hokimligining 2024-yil II yarim yillik ish rejasi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Quyidagi muhim hujjatlar ijrosini ta‘minlash viloyat hokimining o‘rinbosarlari, guruh va kotibiyatlar, viloyatdagi davlat boshqaruvi organlari va tashkilotlarining ustuvor vazifalari etib belgilansin:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston - 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ijro intizomini mustahkamlash, qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijrosini samarali tashkil etishda barcha darajadagi rahbarlarning shaxsiy javobgarligini kuchaytirish to‘g‘risida” 2021-yil 10-fevraldagi PF–6166-son Farmoni;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko‘rsatishini ta‘minlashga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2021-yil 31-maydagi PQ–5132-son qarori;

Davlatimiz rahbarining viloyatga tashriflaridagi uchrashuvlar va yig‘ilishlaridagi ma‘ruzasi;

viloyat hokimligining Davlatimiz rahbari huzuridagi hisobotlari bo‘yicha 2024-yil va kelgusi yillar uchun topshiriqlar bayonnomalari;

2024-yil III yarim yillikda viloyat hokimligi, boshqarmalar, idoralar va tumanlar hokimliklari tomonidan viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning muhim ustuvor yo‘nalishlarini, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan belgilab berilgan vazifalarni bajarish, Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan topshiriqlarni ijrosini ta‘minlash, shu jumladan Yangi O‘zbekistonni barpo etish maqsadida, hududlarni rivojlantirishda ishni “mahallabay” va “xonadonbay” tashkil etish, ixcham va samarali davlat boshqaruv tizimiga o‘tish, “Inson qadri uchun” tamoyilini hayotning barcha jabhalariga keng tatbiq etish, “Temir daftar”, “Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari” asosida aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, iqtisodiyot tarmoqlarida klasterlarni rivojlantirish, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, energiya resurslaridan tejamkorlik bilan foydalanish va muqobil energetika manbalaridan keng foydalanish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, qarorlari, farmoyishlari, Hukumat qarorlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining 2024-yil II yarim yillik uchun ish rejasida belgilangan vazifa va topshiriqlar.

4. Viloyat hokimining o‘rinbosarlari, maslahatchilari va yordamchilariga viloyat boshqarmalari, tuman va shaharlar hokimlari bilan birgalikda:

viloyat hokimligining 2024-yil II yarim yillik ish rejasining bajarilishini ta‘minlash;

O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon, qaror va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining hujjatlari va topshiriqlarining bajarilishini ta‘minlashda ijro intizomiga qat‘iy rioya qilish va uni yanada mustahkamlash;

**uch kun muddatda** “O‘zbekiston - 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturida belgilangan

vazifalarni bajarish bo'yicha, hududlarni rivojlantirishda ishni "mahallabay", "xonadonbay" tashkil etish, "Inson qadri uchun" tamoyilini hayotning barcha jabhalariga keng tatbiq etish, "Temir daftar", "Ayollar daftari", "Yoshlar daftari" asosida aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, iqtisodiyot tarmoqlarida klasterlarni rivojlantirish, ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirishga asosiy e'tiborni qaratgan holda boshqarmalar hamda shahar va tumanlar hokimliklarining 2024-yil II yarim yilligi uchun ish rejalarini tasdiqlash topshirilsin.

5. Viloyat hokimligining 2024-yil II yarim yillik Ish rejasi **quyidagi talablariga qat'iy rioya etilsin:**

a) **uch kun muddatda** - tegishli boshqarmalar, idoralar, shahar (tuman)lar hokimliklarining II yarim yillik ish rejalarini tartibga solish bo'yicha kompleks tashkiliy chora-tadbirlar amalga oshirilsin;

b) **doimiy va tizimli asosda** – hokimliklar apparati va idoraviy mansub tarkibiy bo'linmalarda ijro intizomining holatini tanqidiy o'rganib chiqilishini (ishlab chiqilgan reja-jadvalga muvofiq) ta'minlansin;

v) **2025-yil 5-yanvarga qadar** viloyat hokimligi apparatining tegishli tarkibiy bo'limlariga 2024-yil II yarim yillik ish rejasining bajarilishi to'g'risidagi tahliliy ma'lumotlarni taqdim etish topshirilsin.

6. Viloyat hokimining o'rinbosarlari, yordamchi va maslahatchilari, hokimlik apparati tarkibiy bo'linmalari, guruh rahbarlari va kotibiyat mudirlariga:

viloyat hokimi va uning o'rinbosarlari rahbarlik qiladigan amaldagi komissiyalar (kengashlar, ishchi guruhlar va boshqalar) faoliyatini, ularning maqsadli vazifalarini o'z vaqtida va to'liq hajmda bajarilishini tashkil qilish;

yagona idoralararo ijro intizomi elektron tizimi (Ijro.gov.uz) orqali kelib tushgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti topshiriqlarining ijrosini o'z muddatida sifatli va to'liq amalga oshirilishini ta'minlash, ushbu jarayonlarda hujjatlarning amaldagi qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiq to'g'ri rasmiylashtirilishiga alohida e'tibor qaratish;

2024-yil II yarim yillik ish rejasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Hukumati, viloyat hokimi topshiriqlari hamda funksional vazifalardan kelib chiqqan holda oylik ish rejalarini samarali va oqilona rejalashtirish, komplekslar tarkibiga kiruvchi boshqarma, korxonalar, tashkilot va muassasalar rahbarlari, shahar va tumanlar hokimliklarining ishlari rejalashtirilishiga, ularning har oylik ish rejalarini tasdiqlanishi va bajarilishi natijadorligiga nisbatan talabchanlikni kuchaytirish choralarini ko'rish vazifalari topshirilsin.

Vazirlar Mahkamasining tegishli departamentiga 2025-yil 10-yanvar qadar – 2024-yil II yarim yillik ish rejasining bajarilishi to‘g‘risidagi axborotni va 2025-yil I yarim yillik ish rejasi loyihasi yuzasidan takliflar taqdim etsin.

7. Belgilab qo‘yilsinki, viloyat hokimining o‘rinbosarlari, yordamchi va maslahatchilari, hokimlik apparati tarkibiy bo‘linmalari rahbarlari ish rejada belgilab qo‘yilgan vazifa va topshiriqlarning o‘z vaqtida, to‘liq bajarilishini ta‘minlash bo‘yicha shaxsan mas‘uldirlar.

8. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish viloyat hokimining barcha o‘rinbosarlari zimmasiga yuklansin.



**Farg‘ona viloyati hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari  
bo‘yicha birinchi o‘rinbosari kotibiyatining 2024-yil II yarim yillikka mo‘ljallangan  
ISH REJASI**

№	Ustuvor vazifalar, bajariladigan ishlar	Bajarish muddatlari	Mas‘ullar: Boshqarmalar, tashkilotlar va idoralar, shaharlar va tumanlar hokimliklari
<b>I. 2024-yil II-yarim yillikda 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasidan kelib chiqadigan ustuvor vazifalari</b>			
1.	2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va biznesga e‘tibor yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturida belgilangan vazifalarni o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirish.	2024-yil II yarim yillik  Belgilangan muddatlarda	Viloyat hokimligining moliya-iqtisodiyot, tadbirkorlikni rivojlantirish, kambag‘allikni qisqartirish masalalari kompleksi tarkibiga kiruvchi boshqarma va tashkilotlar, shahar va tumanlar hokimliklari <b>A.Ro‘ziyev, kotibiyat mutaxassislari</b>
2.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida o‘tkazilgan majlislar yakunlari bo‘yicha tasdiqlangan bayonnomalardagi topshiriqlarni sifatli bajarilishini ta‘minlash	2024-yil II yarim yillik  Belgilangan muddatlarda	Viloyat hokimligining moliya-iqtisodiyot, tadbirkorlikni rivojlantirish, kambag‘allikni qisqartirish masalalari kompleksi tarkibiga kiruvchi boshqarma va tashkilotlar, shahar va tumanlar hokimliklari <b>A.Ro‘ziyev, kotibiyat mutaxassislari</b>
3.	Viloyat hokimligining moliya-iqtisodiyot, tadbirkorlikni rivojlantirish, kambag‘allikni qisqartirish masalalari kompleksi tarkibiga kiruvchi boshqarma va tashkilotlar, shuningdek, shahar va tuman hokimliklari tomonidan <b>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining hududlarga tashriflari yakunlari bo‘yicha tasdiqlangan yig‘ilish bayonnomalaridagi topshiriqlarni so‘zsiz va sifatli bajarilishini ta‘minlash.</b>	2024-yil II yarim yillik  Belgilangan muddatlarda	Viloyat hokimligining moliya-iqtisodiyot, tadbirkorlikni rivojlantirish, kambag‘allikni qisqartirish masalalari kompleksi tarkibiga kiruvchi boshqarma va tashkilotlar, shahar va tumanlar hokimliklari <b>A.Ro‘ziyev, kotibiyat mutaxassislari</b>
4.	<b>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 31 maydagi “Ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko‘rsatishini ta‘minlashga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5132-sonli qaror</b>	Doimiy,  Belgilangan muddatlarda	Viloyat hokimligining moliya-iqtisodiyot, tadbirkorlikni rivojlantirish, kambag‘allikni qisqartirish masalalari kompleksi tarkibiga kiruvchi boshqarma va tashkilotlar, shahar va

	<b>talablaridan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon, qaror, farmoyish va topshiriqlari ijrosi yuzasidan axborotlarni asoslovchi hujjatlari bilan belgilangan muddatlarda taqdim etish hamda ijro.gov.uz tizimiga kiritilishini ta’minlash</b>		tumanlar hokimliklari <b>A.Ro‘ziyev, F.Axmadjonov</b>
5.	“Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 28-dekabrda “ <b>Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlari to‘g‘risida</b> ”gi PF-4904-sonli Farmonida belgilab berilgan vazifalarga qat’iy amal qilgan holda kotibiyatga kelib tushgan murojaatlarni <u>to‘liq, xolis va o‘z muddatlarida</u> ko‘rib chiqilishini tashkil etish.	Doimiy	Viloyat hokimligining moliya-iqtisodiyot, tadbirkorlikni rivojlantirish, kambag‘allikni qisqartirish masalalari kompleksi tarkibiga kiruvchi boshqarma va tashkilotlar, shahar va tumanlar hokimliklari <b>A.Ro‘ziyev, A.Abdullayev kotibiyat mutaxassislari</b>
6.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida” 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni hamda “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini 2023-yilda sifatli va o‘z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 11-sentabrdagi PQ-300-son qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan Farg‘ona viloyati saylovchilari bilan o‘tkazilgan saylov oldi uchrashuvida belgilangan vazifalarni 2030 yilgacha, xususan, 2023-2024-yillar mo‘ljallangan amaliy chora-tadbirlar ijrosini ta’minlash.	2024-yil II yarim yillik	Viloyat hokimligining moliya-iqtisodiyot, tadbirkorlikni rivojlantirish, kambag‘allikni qisqartirish masalalari kompleksi tarkibiga kiruvchi boshqarma va tashkilotlar, shahar va tumanlar hokimliklari <b>A.Ro‘ziyev, A.Abdullayev kotibiyat mutaxassislari</b>
<b>II. Makroiqtisodiy tahlil, tarkibiy o‘zgartirishlar, yashirin iqtisodiyotni qisqartirish hamda budjet, soliq va bojxona siyosatini muvofiqlashtirish masalalari bo‘yicha</b>			
7.	Viloyat, shahar va tumanlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining 2024-yil II yarim yilligi yakunlari bo‘yicha tahliliy ma’lumotlar va hisobotlarni tayyorlash.	2024-yil Iyul-dekabr	Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi, Statistika boshqarmasi <b>A.Ro‘ziyev, A.Abdullayev kotibiyat mutaxassislari</b>
8.	<b>Farg‘ona viloyatida 2024-yilning II yarim yillik uchun belgilangan</b> viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha belgilangan makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarga so‘zsiz erishilishini ta’minlash bo‘yicha barcha zaruriy chora-tadbirlarni amalga oshirish.	2024-yil II yarim yillik	Viloyat hokimligining moliya-iqtisodiyot, tadbirkorlikni rivojlantirish, kambag‘allikni qisqartirish masalalari kompleksi tarkibiga kiruvchi boshqarma va tashkilotlar, shahar va tumanlar hokimliklari <b>A.Ro‘ziyev, D.Nishonov kotibiyat mutaxassislari</b>

9.	Fargʻona viloyatida toʻrtinchi va beshinchi toifalarga kiritilgan tumanlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish boʻyicha mavjud zaxiralardan samarali foydalanish va tadbirkorlikni qoʻllab-quvvatlashga qaratilgan <b>“yoʻl xarita”</b> lari ijrosini muvofiqlashtirish va <b>har oy yakuni</b> boʻyicha tahliliy maʼlumotlar va hisobotlarni tayyorlash.	Tasdiqlanganda n soʻng har oyning 10 sanasiga	Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi, <b>A.Roʻziyev, D.Nishonov</b>
10.	Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Oʻzbekiston Respublikasining “2023-yil uchun Oʻzbekiston Respublikasining Davlat budjeti toʻgʻrisida”gi Qonuni ijrosini taʼminlash chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi 2022-yil 30 dekabrda PQ-471-son qarorida belgilangan vazifalarning oʻz vaqtida va sifatli bajarilishini taʼminlash.	2024-yil Iyul-dekabr	Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi, Davlat Soliq boshqarmasi, shahar va tumanlar hokimliklari <b>A.Roʻziyev, D.Nishonov</b>
11.	Har bir hudud budjetining kamida 5 foizini <b>“Tashabbusli budjet”</b> dasturi doirasida aholining takliflari asosida eng dolzarb muammolarni yechishga yoʻnaltirilishini taʼminlash.	2024-yil Iyul-dekabr	Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Fargʻona viloyatidagi Xalq qabulxonasi, Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi, Davlat moliyaviy nazorat boshqarmasi, Xalq deputatlari viloyat kengashi, Kambagʻalikni qisqartirish va badlik boshqarmasi, shahar va tumanlar hokimliklari <b>A.Roʻziyev, D.Nishonov</b>
12.	Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining <b>“Respublika hududlarini toifalarga ajratish va tadbirkorlikni qoʻllab-quvvatlashning tabaqalashtirilgan tizimini joriy etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”</b> gi 2022-yil 30 dekabrda PF-287-son Farmonida belgilangan vazifalarning oʻz vaqtida va sifatli bajarilishini taʼminlash.	2024-yil II yarim yillik	Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi, Davlat Soliq boshqarmasi, shahar va tumanlar hokimliklari <b>A.Roʻziyev, D.Nishonov</b>
13.	Tumandagi past quvvatda ishlayotgan va ishlab chiqarish hajmini kamaytirgan korxonalarni joyiga borgan holda ularni quvvatini oshirish boʻyicha muammo va takliflarini doimiy oʻrganish.	Doimiy	Markaziy bank bosh boshqarmasi, Davlat Soliq boshqarmasi, shahar va tumanlar hokimliklari <b>A.Roʻziyev, D.Nishonov</b>
14.	Viloyatning <b>2024-yil ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish doirasida</b> hududlarda barcha yoʻnalishlarda amalga oshirilayotgan loyihalarni oʻrganib borish va tahliliy maʼlumot tayyorlash.	2024-yil II yarim yillik	Markaziy bank bosh boshqarmasi, Davlat Soliq boshqarmasi, Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi, shahar va tumanlar hokimliklari <b>A.Roʻziyev, A.Abdullayev</b>
15.	Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining <b>“Xizmatlar soxasini rivojlantirishga oid qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”</b> gi	2024-yil II yarim	Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi, <b>A.Roʻziyev, D.Nishonov</b>

	<b>2022-yil 27 yanvarda PQ-104-son qarorida</b> belgilangan ustuvor vazifalarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta‘minlash.	yillik	
16.	Ishlab chiqarish hajmini yanada ko‘paytirish orqali aholini kafolatlangan oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlash, yetarli miqdorda zahira yaratish hamda narx-navo barqarorligini ta‘minlash choralarini ko‘rish. Dehqon bozorlarida asosiy turdagi oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari narx-navosini asossiz oshib ketishini oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish va kunlik nazorat o‘rnatish.	Doimiy	Viloyat hokimligining moliya-iqtisodiyot, tadbirkorlikni rivojlantirish, kambag‘allikni qisqartirish masalalari kompleksi tarkibiga kiruvchi boshqarma va tashkilotlar, shahar va tumanlar hokimliklari <b>A.Ro‘ziyev, D.Nishonov</b>
17.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining <b>“Bojxona ma‘muriyatchiligini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”</b> gi 2022-yil 27-apreldagi PF-122-son Farmonida belgilangan vazifalarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta‘minlash.	2024-yil II yarim yillik	Bojxona boshqarmasi, shahar va tuman hokimliklari <b>A.Ro‘ziyev, D.Nishonov</b>
18.	Bank tizimida yuzaga kelgan muammoli kreditlarning tizim barqarorligiga ta‘siri va muammoli kreditlarni kamaytirish yuzasidan tijorat banklari hamda mahalliy hokimliklar tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar samaradorligini ta‘minlash.	2024-yil II yarim yillik	Markaziy bank bosh boshqarmasi, tijorat banklari, shahar va tuman hokimliklari <b>A.Ro‘ziyev, S.Sodikov</b>
19.	Vazirlar Mahkamasining <b>“Asosiy turdagi oziq-ovqat va zarur mahsulotlar narxlari barqarorligini ta‘minlash hamda mahsulotlar xavfsizligi va sifatini tizimli nazorat qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”</b> gi 2022-yil 19-dekabrda 716-son qarorida belgilangan ustuvor vazifalarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta‘minlash.	2024-yil II yarim yillik	Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi, Bozorlar uyushmasi, Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti, shahar va tuman hokimliklari <b>A.Ro‘ziyev, D.Nishonov</b>
<b>III. Davlat aktivlarini xususiylashtirish va transformatsiya qilish hamda davlat-xususiylashtirish, raqobat va moliya bozorini rivojlantirish masalalari bo‘yicha</b>			
20.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24 martdagi <b>“Iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”</b> gi PQ-102-son qarori ijrosini ta‘minlash choralarini ko‘rish.	2024-yil davomida	Davlat aktivlarini boshqarish agentligi, Tegishli topshiriqlarning ijrosiga mas‘ul etib belgilangan boshqarma va tashkilotlar, shahar va tumanlar hokimliklari <b>A.Ro‘ziyev, S.Sodikov</b>
21.	Xususiylashtirishni natijadorligi hamda budjet parametrlarini bajarilishini tahlil qilish.	2024-yil II yarim	Davlat aktivlarini boshqarish agentligi, Tegishli topshiriqlarning ijrosiga mas‘ul etib

		yillik	belgilangan boshqarma va tashkilotlar, shahar va tumanlar hokimliklari <b>A.Ro‘ziyev, S.Sodikov</b>
22.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining <b>“Mahalla budjeti” tizimini joriy etish orqali mahallalarning moliyaviy imkoniyatini yanada kengaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida</b> ”gi 2022-yil 26-dekabrda PQ-458-son qarorida belgilangan ustuvor vazifalarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta’minlash.	2024-yil II yarim yillik	Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi, Kambag‘allikni qisqartirish va banklik va boshqa mas’ul boshqarmalar, <b>A.Ro‘ziyev, D.Nishonov</b>
23.	<b>“Davlat xaridlari to‘g‘risida</b> ”gi Qonun va qonunosti hujjatlari talablariga rioya etgan holda xaridlar tegishli ravishda axborot portaliga e’lonlar joylashtirilishi, shuningdek, tender, tanlov va auksionsiz to‘g‘ridan-to‘g‘ri tuzilgan shartnomalar tuzilishini oldini olish.	2024-yil II yarim yillik	G‘aznachilik boshqarmasi, Davlat moliyaviy nazorati boshqarmasi va boshqa mas’ul boshqarmalar, <b>A.Ro‘ziyev, D.Nishonov</b>
<b>IV. Mahallabay ishlash orqali bandlikni oshirish va kambag‘allikni qisqartirish hamda tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va yer munosabatlarini tartibga solish masalalari bo‘yicha</b>			
24.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-dekabrda <b>“Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha hokim yordamchilari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida</b> ”gi PF-29-sonli Farmonida belgilangan vazifalarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta’minlash.	2024-yil II yarim yillik	Viloyat hokimligining moliya-iqtisodiyot, tadbirkorlikni rivojlantirish, kambag‘allikni qisqartirish masalalari kompleksi tarkibiga kiruvchi boshqarma va tashkilotlar, shahar va tumanlar hokimliklari <b>A.Ro‘ziyev, S.Sodiqov Kotibiyat mutaxassislari</b>
25.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrda <b>“Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo‘g‘in sifatida ishlashini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida</b> ”gi PF-209-sonli farmonida belgilangan vazifalarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta’minlash.	2024-yil II yarim yillik	Viloyat hokimligining moliya-iqtisodiyot, tadbirkorlikni rivojlantirish, kambag‘allikni qisqartirish masalalari kompleksi tarkibiga kiruvchi boshqarma va tashkilotlar, shahar va tumanlar hokimliklari <b>A.Ro‘ziyev, S.Sodiqov Kotibiyat mutaxassislari</b>
26.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-iyunda <b>“Kambag‘allikni qisqartirishda tadbirkorlik sub’ektlari bilan o‘zaro manfaatli hamkorlik o‘rnatishga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida</b> ”gi PF-93-son Farmoni doirasida viloyatda	2024-yil davomida	Viloyat hokimligining moliya-iqtisodiyot, tadbirkorlikni rivojlantirish, kambag‘allikni qisqartirish masalalari kompleksi tarkibiga kiruvchi boshqarma va tashkilotlar, shahar va

	“20 ming tadbirkor – 500 ming malakali mutaxassis” Dasturi ijrosini ta’minlash.		tumanlar hokimliklari <b>A.Ro‘ziyev, A.Abdullayev</b>
27.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “ <b>Tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xususiy sektorni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o‘sinh uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi navbatdagi islohotlar to‘g‘risida</b> ”gi 2022-yil 30-dekabrda PF-101-son Farmonida belgilangan vazifalarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta’minlash.	2024-yil II yarim yillik	Viloyat hokimligining moliya-iqtisodiyot, tadbirkorlikni rivojlantirish, kambag‘allikni qisqartirish masalalari kompleksi tarkibiga kiruvchi boshqarma va tashkilotlar, shahar va tumanlar hokimliklari <b>A.Ro‘ziyev, S.Sodikov</b>
28.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31 yanvardagi “ <b>Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida aholining biznes tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashni yangi bosqichga olib chiqishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida</b> ”gi PQ-39-sonli qarorida belgilangan vazifalarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta’minlash.	2024-yil II yarim yillik	Markaziy bank viloyat bosh boshqarmasi, tijorat banklari, mas’ul viloyat boshqarma va tashkilotlar, shahar va tumanlar hokimliklari <b>A.Ro‘ziyev, S.Sodikov</b>
29.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “ <b>O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi faoliyatini yanada takomillashtirish chora- tadbirlari to‘g‘risida</b> ”gi 2022-yil 20-oktabrdagi PQ-405-son qarorida belgilangan ustuvor vazifalarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta’minlash.	2024-yil II yarim yillik	Kadastr agentligi hududiy boshqarmasi, shahar va tuman hokimliklari <b>A.Ro‘ziyev, D.Nishonov</b>
30.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “ <b>Hududlarning iqtisodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish va bo‘sh yer uchastkalaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida</b> ”gi 2024-yil 8 iyuldagi PQ-245-son qarorida belgilangan ustuvor vazifalarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta’minlash.	2024-yil II yarim yillik	Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi, tegishli shahar va tuman hokimliklari, <b>A.Ro‘ziyev, D.Nishonov</b>
31.	2024-yil mobaynida har bir tuman va shaharda 2023-yil ko‘rsatkichdan kam bo‘lmagan miqdorda tadbirkorlik sub’ektlari tashkil etilish chora-tadbirlarini amalga oshirish.	2024-yil II yarim yillik	Savdo-sanoat palatasi hududiy boshqarmasi, Davlat soliq boshqarmasi, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasi hamda tegishli topshiriqlarning ijrosiga mas’ul etib belgilangan boshqarma va tashkilotlar, shahar va tumanlar hokimliklari <b>A.Ro‘ziyev, D.Nishonov, S.Sodikov</b>
32.	Hududlarda yashirin <b>ish o‘rinlarida legallashtirish</b> bo‘yicha 2024-yil uchun belgilangan prognoz ko‘rsatkichlarining bajarilishini ta’minlash, tahliliy ma’lumotlar kiritish.	Har oy yakuni bilan	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi, Davlat soliq boshqarmasi hamda shahar va tuman hokimliklari

			<b>A.Ro‘ziyev, A.Abdullayev</b>
33.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2024-yil 9 yanvardagi <b>“2024-yilda yangi ish o‘rinlarini tashkil etish va aholi bandligiga ko‘maklashish dasturi to‘g‘risida”</b> gi PQ-7-son qarori doirasida joriy yilda 328 mingta yangi ish o‘rinlari tashkil etilishini ta‘minlash.	2024-yil davomida	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi, Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi, Investitsiyalar va tashqi savdo boshqarmasi, Qishloq xo‘jaligi boshqarmasi barcha mas‘ul boshqarma va tashkilotlar, shahar va tuman hokimliklari <b>A.Ro‘ziyev, A.Abdullayev, S.Sodikov</b>
34.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 14 sentabrdagi “Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-306-son qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 22 yanvardagi <b>“Kichik biznesni uzluksiz qo‘llab-quvvatlash” kompleks dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”</b> gi 37-sonli qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida kichik tadbirkorlik sub’ektlarining biznes loyihalarini ishlab chiqish, moliyalashtirish va ishga tushirish, sotuv bozorlarini kengaytirish, xususiy investitsiya sheriklarini jalb qilish, biznes rejalar va texnik iqtisodiy asoslarni ishlab chiqish choralari ko‘rish.	2024-yil davomida	Markaziy bank bosh boshqarmasi, Biznesni rivojlantirish banki, Savdo-sanoat palatasi, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi, shahar va tuman hokimliklari <b>A.Ro‘ziyev, S.Sodikov</b>
35.	Soliq organlari tomonidan ro‘yxatdan o‘tishi orqali fuqarolarni o‘zini o‘zi band qilish chora-tadbirlarini ko‘rish.	2024-yil II yarim yillik	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi, Davlat soliq boshqarmasi, shahar va tuman hokimliklari <b>A.Ro‘ziyev, D.Nishonov</b>
36.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 8 iyundagi <b>“Ishchi kasblar bo‘yicha kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”</b> gi PQ-5140-sonli qarorida belgilangan ustuvor vazifalarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta‘minlash.	2024-yil II yarim yillik	Viloyat hokimligining moliya-iqtisodiyot, tadbirkorlikni rivojlantirish, kambag‘allikni qisqartirish masalalari kompleksi tarkibiga kiruvchi boshqarma va tashkilotlar, shahar va tumanlar hokimliklari <b>A.Ro‘ziyev, Kotibiyat mutaxassislari</b>
37.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 15 sentabrdagi <b>“Xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”</b> gi PQ-4829-sonli qarorida belgilangan vazifalarni natijadorligi tahlil qilish.	2024-yil II yarim yillik	Viloyat Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi, Tashqi mehnat migratsiyasi Farg‘ona filiali, Markaziy bank viloyat bosh boshqarmasi, Savdo-sanoat palatasi hududiy boshqarmasi, shahar va



			tuman hokimliklari <b>A.Ro‘ziyev, S.Sodikov</b>
38.	2024-yilda tashqi mehnat migratsiyasi yo‘nalishida amalga oshiriladigan ishlar bo‘yicha har bir hudud bo‘yicha aniq prognoz ko‘rsatkichlar bo‘yicha <b>“Yo‘l xarita”</b> lar ishlab chiqish, tasdiqlash va ijrosini belgilangan muddatlarda bajarilishini nazoratga olish.	2024-yil II yarim yillik	Viloyat Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi, Tashqi mehnat migratsiyasi Farg‘ona filiali, Markaziy bank viloyat bosh boshqarmasi, Savdo-sanoat palatasi hududiy boshqarmasi, shahar va tuman hokimliklari <b>A.Ro‘ziyev, S.Sodikov</b>
39.	Xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini yuritib vatanga qaytgan fuqarolar, ayniqsa, yoshlar va xotin-qizlar bandligini ta‘minlash, ularni tadbirkorlikka jalb etish bo‘yicha tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish.	2024-yil II yarim yillik	Viloyat Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi, Tashqi mehnat migratsiyasi Farg‘ona filiali, Markaziy bank viloyat bosh boshqarmasi, Savdo-sanoat palatasi hududiy boshqarmasi, shahar va tuman hokimliklari <b>A.Ro‘ziyev, S.Sodikov</b>
40.	“Ishga marhamat” va kasb-hunarga o‘qitish markazlarida tashqi mehnat bozorida <b>yuqori talabga ega bo‘lgan yangi kasblar bo‘yicha o‘quv kurslarni tashkil etish.</b>	2024-yil II yarim yillik	Viloyat Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi, Tashqi mehnat migratsiyasi Farg‘ona filiali, Markaziy bank viloyat bosh boshqarmasi, Savdo-sanoat palatasi hududiy boshqarmasi, Yoshlar ishlari agentligi hududiy boshqarmasi, shahar va tuman hokimliklari <b>A.Ro‘ziyev, S.Sodikov</b>
41.	Mahallalarda aholi bandligini ta‘minlash maqsadida <b>Sayxunobod, Uychi, Zarbdor, G‘ijduvon</b> tajribalari bo‘yicha amalga oshiriladigan ishlar natijadorligini oshirish.	2024-yil II yarim yillik	Viloyat Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi, Markaziy bank viloyat bosh boshqarmasi, Soliq boshqarmasi, shahar va tuman hokimliklari <b>A.Ro‘ziyev, S.Sodikov, A.Abdullayev</b>
42.	Viloyatning <b>1063 ta mahallalarida</b> mahallabay ishlash tizimi orqali hokim yordamchilari tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar hamda hududni drayver loyihalarini doimiy o‘rganib borish.	2024-yil II yarim yillik	Viloyat Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi, Markaziy bank viloyat bosh boshqarmasi, shahar va tuman hokimliklari <b>A.Ro‘ziyev, A.Abdullayev</b>



**V. Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejoychi texnologiyalarni joriy etish masalalari bo'yicha**

43.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevraldagi <b>“2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejoychi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”</b> gi PQ-57-sonli qarorida belgilangan ustuvor vazifalarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash.	2024-yil II yarim yillik	Viloyat hokimligining moliya-iqtisodiyot, tadbirkorlikni rivojlantirish, kambag'allikni qisqartirish masalalari kompleksi tarkibiga kiruvchi boshqarma va tashkilotlar, shahar va tumanlar hokimliklari <b>A.Ro'ziyev, D.Nishonov</b>
-----	---	--------------------------------	--

**Viloyat hokimining qurilish, to‘siqlarsiz muxit yaratish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha kotibiyatining 2024 yil II yarim yillik ISH REJASI**

№	Ustuvor vazifalar, o‘rganiladigan masalalar mavzusi	Ijro muddati	Ijro uchun mas’ullar
<b>I. «O‘zbekiston — 2030» strategiyasi va uni amalga oshirish bo‘yicha tegishli yillik dasturlar hamda Vazirlar Mahkamasining yaqin muddatga va uzoq istiqbolga mo‘ljallangan harakatlar dasturidan kelib chiqadigan ustuvor vazifalari</b>			
1.	“O‘zbekiston — 2030” strategiyasini 2024 yil –“Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirilishi belgilangan ustuvor vazifalarni sifatli va o‘z vaqtida bajarilishini tashkil etish: har oyda viloyat hokimi huzurida muhokama qilib borish;	Iyul-dekabr	Viloyat hokimining qurilish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari, tegishli boshqarma va tashkilot rahbarlari, viloyat hokimligi kotibiyat mudiri, shahar, tuman hokimining o‘rinbosarlari
2.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti raisligida 2024 yil 17 iyul kuni bo‘lib o‘tgan <b>hududlar va tarmoqlarda iqtisodiy o‘sish sur‘atlarini ta‘minlash bo‘yicha 2024 yil birinchi yarim yilligi tahlili va yil yakuniga qadar ustuvor vazifalar to‘g‘risidagi</b> videosektor yig‘ilishda berilgan topshiriqlar ijrosini sifatli va o‘z vaqtida bajarilishini ta‘minlash.	Iyul-dekabr	Viloyat hokimining qurilish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari, tegishli boshqarma va tashkilot rahbarlari, viloyat hokimligi kotibiyat mudiri, shahar, tuman hokimining o‘rinbosarlari
3.	Temir yo‘lda yuk tashish xizmatlari uchun berilgan chegirmalar hamda yo‘lovchi tashishdan ko‘rilgan zararlarni Davlat budjetidan kompensatsiya qilishda yangi mexanizmlarni joriy etish.	Avgust	Viloyat hokimining qurilish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari, tegishli boshqarma va tashkilot rahbarlari, viloyat hokimligi kotibiyat mudiri, shahar, tuman hokimining o‘rinbosarlari
4.	Xususiy sektor ishtirokida temir yo‘l vokzallarida yo‘lovchilarga qulay sharoitlar yaratish, xizmat ko‘rsatish va savdo ob‘ektlarini tashkil etish maqsadida: barcha temir yo‘l vokzallarini optimallashtirish qilish hisobiga bo‘shaydigan hududlarda savdo va xizmat ko‘rsatish nuqtalarini tashkil qilish uchun tadbirkorlarga auksion orqali ijaraga berish; Qo‘qon vokzallaridan foydalanish va ularni boshqarishga davlat-xususiy sheriklik asosida xususiy sektorni jalb qilish.	Iyul-dekabr	Viloyat hokimining qurilish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari, tegishli boshqarma va tashkilot rahbarlari, viloyat hokimligi kotibiyat mudiri, shahar, tuman hokimining o‘rinbosarlari
5.	Avtomobil yo‘llari, shaharlar va boshqa aholi punktlari ko‘chalari holatini yaxshilash: Viloyatdagi 40 km dan ziyod umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llarini ta‘mirlash;	Iyul-dekabr	Viloyat hokimining qurilish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari, tegishli boshqarma va tashkilot rahbarlari, viloyat hokimligi kotibiyat mudiri, shahar, tuman

	234 kmdan ortiq ichki yo‘llarni ta‘mirlash; ta‘mirtalab 8 dona ko‘prik inshootlarini tiklash.		hokimining o‘rinbosarlari
6.	Davlat-xususiy sheriklik asosida pulli avtomobil yo‘llarini tashkil etish loyihalarini amalga oshirish.	Iyul-dekabr	Viloyat hokimining qurilish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari, Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi, Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi, shahar, tuman hokimining o‘rinbosarlari
7.	Avtomobil yo‘llarida transport vositalari va piyodalarning xavfsiz harakatini ta‘minlash bo‘yicha quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish: Viloyat markazlarida tajriba-sinov tariqasida piyodalar o‘tish yo‘laklariga zamonaviy yoritgichlar o‘rnatish; aholi punktlarida piyodalar harakatlanishi uchun 7 km piyodalar yo‘laklarini barpo etish; 4 dona svetofor ob‘ektlarini qurish va mavjudlarini rekonstruksiya qilish; avtomobil yo‘llarida 1 mingdan ortiq yo‘l belgilarini o‘rnatish.	Iyul-dekabr	Viloyat hokimining qurilish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari, Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi, Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi, shahar, tuman hokimining o‘rinbosarlari
8.	Tajriba-sinov tariqasida viloyatda autorsing asosida jalb qilingan tadbirkorlik sub‘ektlari tomonidan uzunligi 20 km gacha bo‘lgan umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llarini ekspluatatsiya qilish ishlarini sifatli tashkil etish.	Iyul-dekabr	Viloyat hokimining qurilish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari, viloyat Transport boshqarmasi, Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi
9.	Ko‘p qavatli uy-joylardagi xonadonlarni energiya samaradorligi (energoaudit)ni baholashni tashkil etish. Bunda: Ko‘p kvartirali uylardagi xonadonlarning energiya samaradorligini baholash tartibini ishlab chiqish; baholash tartibi asosida ko‘p kvartirali uylarning energiya samaradorligini baholash bo‘yicha qisqa va o‘rta muddatli chora-tadbirlar rejalarni ishlab chiqish.	Avgust sentabr	Viloyat hokimining qurilish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari, viloyat Avtomobil yo‘llari boshqarmasi, shahar, tuman hokimining o‘rinbosarlari
10.	Temir yo‘l chiptalarini mobil ilova va elektron to‘lov tizimlari orqali sotishni rivojlantirish, onlayn elektron tizim orqali sotish hajmini <b>70 foizga</b> yetkazish choralarni ko‘rish.	Dekabr	Viloyat hokimining qurilish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari, viloyat Avtomobil yo‘llari boshqarmasi, shahar, tuman hokimining o‘rinbosarlari

11.	Noqonuniy va sifatsiz qurilishlarni hamda bino va inshootlarda seysmik, sanitar va xavfsizlik muammolarini bartaraf etish maqsadida, qonunbuzarliklarga qarshi ta'sirchan chora-tadbirlar ishlab chiqish.	Avgust	Viloyat hokimining qurilish masalalari bo'yicha o'rinbosari, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bosh boshqarmasi, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida hududiy nazorat inspeksiyasi, shahar, tuman hokimining o'rinbosarlari
12.	Shaharlarda velosiped, skuter va piyodalar uchun xavfsiz va qulay yo'llar, pulli avtoturargohlar infratuzilmalarini rivojlantirish Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritish.	Sentabr	Viloyat hokimining qurilish masalalari bo'yicha o'rinbosari, viloyat Avtomobil yo'llari boshqarmasi, shahar, tuman hokimining o'rinbosarlari
13.	Qurilish ob'ektlariga arxitektura rejalashtirish loyihalarini ishlab chiqishni majburiy etib belgilash tartibini yo'lga qo'yish. Arxitektura rejalashtirish loyihalarini ishlab chiqish talab etiladigan yangi qurilishlar parametrlarini shakllantirish.	Sentabr	Viloyat hokimining qurilish masalalari bo'yicha o'rinbosari, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bosh boshqarmasi, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida hududiy nazorat inspeksiyasi, shahar, tuman hokimining o'rinbosarlari
14.	Aholi punktlarining bosh rejalarini ishlab chiqish va urbanizatsiya jarayonlarini jadallashtirish maqsadida 1 ta shahar, 4 ta shaharchaning bosh rejasi loyihalarini ishlab chiqish hamda 9 ta aholi punktining shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish jarayonlarini yakunlash.	Dekabr	Viloyat hokimining qurilish masalalari bo'yicha o'rinbosari, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bosh boshqarmasi, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida hududiy nazorat inspeksiyasi, shahar, tuman hokimining o'rinbosarlari
15.	2024 yilda jami 8600 xonadonli 220 ta ko'p qavatli uy-joylar, Shundan, 5 ta "Yangi O'zbekiston" massivlirda 3952 xonadonli 102 ta va boshqa hududlarda 4648 xonadonli 118 ta ko'p qavatli uy-joylarni foydalanishga topshirish bo'yicha amaliy choralar ko'rish.	Dekabr	Viloyat hokimining qurilish masalalari bo'yicha o'rinbosari, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bosh boshqarmasi, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida hududiy nazorat inspeksiyasi, shahar, tuman hokimining o'rinbosarlari
16.	Marg'ilon shahar «Yangi obod» MFY hududida joylashgan «Burhonuddin Marg'iloniy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi» kompleksi hamda «Yangi O'zbekiston» massividagi jami 110 gektar yer maydonida barpo etilayotgan ko'p qavatli uy-joylar va ijtimoiy infratuzilma ob'ektlari qurilish ishlarini jadallashtirish bo'yicha amaliy choralar ko'rish.	dekabr	Viloyat hokimining qurilish masalalari bo'yicha o'rinbosari, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bosh boshqarmasi, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida hududiy nazorat inspeksiyasi, shahar, tuman hokimining o'rinbosarlari

17.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 11-12 iyul kunlari Farg'ona viloyatiga tashrifi davomida va kengaytirilgan tarzda o'tkazilgan yig'ilishda berilgan topshiriqlariga asosan Marg'ilon va Qo'qon shaharlarida renovatsiya asosida eskirgan uylar o'rnida zamonaviy ko'p kvartirali uy-joylar qurish.	Belgilangan muddatlarda	Viloyat hokimining qurilish masalalari bo'yicha o'rinbosari, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bosh boshqarmasi, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida hududiy nazorat inspeksiyasi, Qo'qon, Marg'ilon shahar hokimining o'rinbosarlari
18.	Respublika aholisining ichimlik suv ta'minoti darajasini oshirish, suv ta'minoti korxonalari laboratoriyalarini ichimlik suv sifatini doimiy monitoring qilish uchun zamonaviy laboratoriya jihozlari va reaktivlar bilan jihozlash, barcha ichimlik suv iste'molchilariga hisoblagichlar o'rnatishni ta'minlash, energiyatejamkor texnologiyalarni joriy qilish hamda aholini davlat-xususiy sheriklik asosida toza ichimlik suv bilan ta'minlash.	dekabr	Viloyat hokimining qurilish masalalari bo'yicha o'rinbosari, "Farg'ona suv ta'minot" AJ, shahar, tuman hokimining o'rinbosarlari
19.	Issiqlik ta'minoti tizimini yaxshilash sohasida davlat- xususiy sheriklik tamoyili asosida loyihalarni amalga oshirish. Shahar va tumanlarning issiqlik ta'minoti tizimiga xususiy sektorni jalb qilish orqali ushbu sohalarni moliyaviy faoliyatini foyda bilan yuritadigan biznesga aylantirish uchun keng sharoitlar yaratish choralari ko'rish.	dekabr	Viloyat hokimining qurilish masalalari bo'yicha o'rinbosari, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bosh boshqarmasi, shahar, tuman hokimining o'rinbosarlari
20.	Hududlarda jamoat transport tizimini rivojlantirish. Bunda: Viloyat markazi jamoat transporti uchun jami 45 ta tabiiy gazda ishlaydigan avtobusni xarid qilish va yo'nalishlarga birlashtirish; jamoat transportining 2 ta yangi yo'nalishlar tarmog'ini tashkil etish.	2024 yil yakuniga qadar	Viloyat hokimining qurilish masalalari bo'yicha o'rinbosari, Transport boshqarmasi
21.	<b>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 10 fevraldagi PF-6166-son Farmoni va 2021 yil 31 maydagi PQ-5132-son qarorida belgilangan talablar asosida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon, qaror, farmoyish va topshiriqlari ijrosini belgilangan muddatlarda, to'liq va sifatli bajarilishini ta'minlash.</b> <i>(«Ijro.gov.uz» elektron tizimida nazoratga olingan topshiriqlar)</i>	2024 yil 2 yarim yillik davomida	Viloyat hokimining qurilish masalalari bo'yicha o'rinbosari, tegishli boshqarma va tashkilot rahbarlari, viloyat hokimligi kotibiyat mudiri, shahar, tuman hokimining o'rinbosarlari
<b>II. O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari, farmoyishlari, bayonlari va Hukumat qarorlari, farmoyishlari, bayonlari bilan yuklatilgan topshiriqlar ijrosini maqsadli o'rganish</b>			
22.	Viloyatda 5 ta "Yangi O'zbekiston" massivlari barpo etilishi,	Har chorak	Viloyat hokimining qurilish masalalari

	<b>8,6 mingta xonadondan iborat bo'lgan ko'p qavatli uy-joylar qurilishi</b> hamda bozor tamoyillariga asoslangan ipoteka kreditlari orqali aholini uy-joy bilan ta'minlash dasturining ijrosi yuzasidan har chorakda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga hisobot kiritib borish.	keyingi oyning 10 sanasiga qadar	bo'yicha o'rinbosari, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi boshqarmasi, Markaziy bank viloyat boshqarmasi, shahar, tuman hokimining o'rinbosarlari
23.	<b>Aholining ichimlik suv ta'minotini va oqova suv tizimini yaxshilash, sohada davlat-xususiy sheriklik va ijtimoiy sheriklik asosida loyihalarni amalga oshirish, sohaga zamonaviy energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish</b> bo'yicha vazifalar ijrosi yuzasidan har chorakda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga hisobot kiritib borish ( <i>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 24-oktabrdagi PQ-343-son qarori</i> ).	Avgust-dekabr	Viloyat hokimining qurilish masalalari bo'yicha o'rinbosari, «Farg'ona suv ta'minot» AJ, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi boshqarmasi, Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi, shahar, tuman hokimining o'rinbosarlari
24.	<b>2024 yilda O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi</b> ijrosi bo'yicha har chorakda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasiga hisobot kiritib borish ( <i>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 25-dekabrdagi PQ-404-son qarori</i> ).	Har chorak keyingi oyning 10 sanasiga qadar	Viloyat hokimining qurilish masalalari bo'yicha o'rinbosari, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi boshqarmasi, Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi, shahar, tuman hokimining o'rinbosarlari
25.	<b>Yo'l xo'jaligi sohasini yanada takomillashtirish, sohada boshqarishning zamonaviy izimini yaratish va raqamlashtirish, sohada sifat nazoratini kuchaytirish va xususiy sektor korxonalarini keng jalb qilish</b> bo'yicha vazifalar ijrosi yuzasidan har chorakda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasiga hisobot kiritib borish ( <i>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 10-oktabrdagi PQ-330-son qarori</i> ).	Avgust-dekabr	Viloyat hokimining qurilish masalalari bo'yicha o'rinbosari, Avtomobil yo'llari boshqarmasi, Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi, shahar, tuman hokimining o'rinbosarlari
26.	Joriy yilda <b>8,6 ming xonadonli yangi uy-joylarni qurish</b> bo'yicha belgilangan vazifalar ijrosini barcha hududlarga joyiga chiqqan holda o'rganish.	har hafta kamida bir marotaba	Viloyat hokimining qurilish masalalari bo'yicha o'rinbosari, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi boshqarmasi, Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi, shahar, tuman hokimining o'rinbosarlari
27.	<b>Viloyat shtabi bilan birgalikda Ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish</b> hamda <b>“Tashabbusli budjet”</b> jarayonida g'olib deb topilgan loyihalar ijrosini barcha hududlarda joyiga chiqqan holda o'rganish.	Har hafta kamida bir marotaba	Viloyat hokimining qurilish masalalari bo'yicha o'rinbosari, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi boshqarmasi, Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi, shahar, tuman hokimining o'rinbosarlari
28.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining <b>“Jamoat transporti tizimini isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida” 2023 yil 16</b>	Har oyda	Viloyat hokimining qurilish masalalari bo'yicha o'rinbosari, Transport

	<p>fevraldagi PQ-59-son qarori ijrosini maqsadli o'rganish va tahlil qilish. Xususan:</p> <p>jamoat transportidagi vaziyatni mutlaqo o'zgartirish va hududlarda yo'lovchi tashish sifatini yaxshilash maqsadida <b>qo'shimcha 45 ta avtobus olib kelish</b> ishlari;</p> <p><b>jamoat transportini moliyalashtirish tizimini</b> yanada takomillashtirish borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar samaradorligini maqsadli o'rganish.</p>		<p>boshqarmasi, Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi, shahar, tuman hokimining o'rinbosarlari</p>
<b>III. Viloyat hokimligi majlislarida ko'rib chiqiladigan masalalar</b>			
29.	<p><b>«Yangi O'zbekiston» massivlarini qurish</b> hamda <b>bozor tamoyillariga asoslangan ipoteka kreditlari orqali aholini uy-joy bilan ta'minlash</b> borasida ko'rilayotgan choralar to'g'risida.</p>	Avgust	<p>Viloyat hokimining qurilish masalalari bo'yicha o'rinbosari, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi boshqarmasi, Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi, shahar, tuman hokimining o'rinbosarlari</p>
30.	<p><b>Jamoatchilik fikri asosida shakllangan «Tashabbusli budjet» loyihalari</b> va qo'shimcha ajratilgan mablag'lar hisobidan amalga oshirilayotgan ishlar va ko'rilayotgan choralar natijadorligi to'g'risida.</p>	Avgust	<p>Viloyat hokimining qurilish masalalari bo'yicha o'rinbosari, tegishli boshqarma va tashkilot rahbarlari, viloyat hokimligi kotibiyat mudiri, shahar, tuman hokimining o'rinbosarlari</p>
31.	<p>Viloyat hududlarida <b>aholining ichimlik suv ta'minotini va oqova suv tizimini yaxshilash, sohada davlat-xususiy sheriklik va ijtimoiy sheriklik asosida loyihalarni amalga oshirish, sohaga zamonaviy energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish</b> bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar natijadorligi to'g'risida.</p>	Sentabr	<p>Viloyat hokimining qurilish masalalari bo'yicha o'rinbosari, «Farg'ona suv ta'minot» AJ, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi boshqarmasi, Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi, shahar, tuman hokimining o'rinbosarlari</p>
32.	<p><b>Kommunal xizmat ko'rsatish sohasida ishlar samaradorligini oshirish hamda boshqaruv kompaniyalari faoliyatini jonlantirish</b> bo'yicha ko'rilayotgan choralar natijadorligi to'g'risida.</p>	Sentabr	<p>Viloyat hokimining qurilish masalalari bo'yicha o'rinbosari, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi boshqarmasi, viloyat hokimligi kotibiyat mudiri, shahar, tuman hokimining o'rinbosarlari</p>
33.	<p><b>O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida joriy yil 10 iyun kuni o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida hamda 2024 yil 14 iyundagi PQ-222-sonli qarorida energiya samaradorligini oshirish va iqtisod qilish</b> yuzasidan berilgan topshiriqlar ijrosini ta'minlash bo'yicha.</p>	Dekabr	<p>Viloyat hokimining qurilish masalalari bo'yicha o'rinbosari, tegishli boshqarma va tashkilot rahbarlari, viloyat hokimligi kotibiyat mudiri, shahar, tuman hokimining o'rinbosarlari</p>





**Farg‘ona viloyati hokimining Investitsiyalar, sanoat va savdo masalalari  
bo‘yicha o‘rinbosari kotibiyatining 2024-yil II yarim yillikka mo‘ljallangan  
ISH REJASI**

№	Ustuvor vazifalar, bajariladigan ishlar	Bajarish muddatlari	Mas’ullar: Boshqarmalar, tashkilotlar va idoralar, shaharlar va tumanlar hokimliklari
<b>I. 2024-yil II-yarim yillikda 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasidan kelib chiqadigan ustuvor vazifalari</b>			
